

KOMBINATOR VA POZITSION FONETIK O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

A.A.Haydarov

(BuxDU)

Annotatsiya. Ushbu maqola tilda yuz beradigan turli fonetik o'zgarishlar va ularning hosil bo'lish sabablarini yoritib berishga qaratilgan. Har bir fonetik o'zgarish alohida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Fonetik o'zgarishlar, metateza, apokopa, epiteza, eleziya, nutq tovushlari, pozitsion.

Malumki, tavsifiy fonetikada nutq tovushlari, ularning artikulyatsion-akustik va prosodik xususiyatlari, shuningdek, supersegment fonetik vositalar: intonatsiya, pauza va urg'ular o'rganiladi. Fonostilistikada esa ushbu fonetik vositalarning uslubiy xususiyatlari, ularda ifodalangan konnotativ ma'nolar tadqiq etiladi. Tilda fonetik o'zgarishli so'zlar ham mavjudki, ular kombinator va pozitsion o'zgarishli so'zlar asosida sodir bo'ladi. Ushbu hodisalar tahlili qator tilshunoslarni qiziqtirib kelmoqda.

Yevropa va turkiyshunoslikda tildagi fonetik hodisalar atroflicha o'rganilgan. Bu hodisani I.V.Arnold¹², I.R.Galperen¹³, V.N.Vasilina, V.I.Goverdovskiy, L.T.Boboxonova¹⁴, Sh.Shoabdurahmonov¹⁵, B.Jurayev, M.Mirtojiyev, O.Umarxo'jaeva, R.Shukurov, J.Eltazarov, A.Haydarov¹⁶ kabi olimlarning ilmiy ishlarida uchratish mumkin.

Ularning ilmiy tadqiqotlarida fonetik hodisalarning nomlanishi, hosil bo'lish yo'llari, til va nutq sathidagi o'rni haqida batafsil fikrlar bayon etilgan.

Tilda nutq tovushlarining o'zgarishi asosan 2 holatga ko'ra sodir bo'ladi:

1 - pozitsion (o'rniga ko'ra) tovush o'zgarishi.

2 - kombinator (o'zaro ta'sirga ko'ra) tovush o'zgarishi.

Pozitsion tovush o'zgarishi nutq tovushlari, so'zdagi o'rnashgan o'rniga bog'liq holatda o'zgarish hodisasidir. Kombinator tovush o'zgarishi nutq tovushlarining nutq kesimida shu so'zdan ma'lum tovush ta'siri bilan o'zgarish hodisasidir.

So'z fonetik variantlarini hosil qilishda metateza, proteza, epiteza, apokopa, eleziya kabi qator hodisalar uchraydi.

Metateza. Grekcha "metathesis" - o'rin almashtirish. So'zdagi tovushlarning o'rin almashinishidir.

O'zbek tilida: buyra - burya, kiprik - kirpik, tuproq - turpoq.

Ingliz tilida: revelent - relevent, brid - bird, asteisks - asterisks, calvery

- cavalry, folige - foliage.

¹² И.В.Арнольд *Стилистика современного английского языка*. – М:Просвещение, 1999. – С 202-211.

¹³ И.П.Гальперен *Стилистика английского языка*. – М: Высшая школа. 1981. – С 312.

¹⁴ L.T.Boboxonova *Ingliz tili stilistikasi*. – T: O'qituvchi 1995. – 140 b.

¹⁵ Sh.Shoabdurahmonov *Tovush almashishi*. – o'zbek tili va adabiyoti. – T: 1961 N 5. – B. 43 – 45 b.

¹⁶ A.A.Haydarov *Fonetik o'zgarishning vazifasi/ o'zbek tili va adabiyoti*. – T:2006. N 6, B. 75 – 77

Ingliz tilidagi "metateza" so'zining etimologiyasi lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, metatithenia fraza ma'nosida bo'ladi va ikki qismdan iborat: "meta" ma'nosi "beyond over", tethenia - ma'nosi "to replace" demakdir.

Kristal fikricha metateza so'z ma'nolari bilan bog'liq holda so'zda tovushlarning o'rin almashinishidir.

Metateza boshqa fonetik o'zgarishli hodisalar, assimilatsiya, eleziyaga o'xshamaydi, u fonologik hodisa bo'lib, tilshunoslikda keng qo'llaniladi. Ingliz tilining ko'p variantligiga ega ekanligini inobatga olib, uning Amerika ingliz tili variantida quyidagi holatni ko'rish mumkin:

asteiks - asterisk

calvery - cavalry

folige - foliage

peetty - pretty kabi.

Vaqt o'tishi bilan metatezaga uchragan so'zlar tilda standartlashib, ularning yozuvdagi shakli o'zgartirgan va yangi talaffuz shakllari yuzaga kelganligini ko'rish mumkin.

Apokopa. (grekcha epohope - kesib qisqartirish) so'z oxiridagi tovush yoki tovushlarning tushib qolishi.¹⁷

Masalan: In many poor neighbourhoods the Sandinistia Front has more street cred than the local youth gang.

- Loss of sounds from the end of a word is known as apacope, as the pronunciation of **child** as **chile**.

Ingliz tilida bir necha so'zlar apokopa natijasida qisqartirilishini ko'rish mumkin. Jumladan, "cinema" so'zi cinematograf so'zidan, **photo** so'zi

photograph so'zidan kelib chiqqan. Xuddi shuningdek, ingliz tilida ba'zi kishi nomlari ham apokopaga uchrab, ular quyidagicha: Barb, Ben, Dek, Steph (Bryan, Germer, Gamerls, modern American usage. Oxford University press. 2009).

Proteza. Ushbu so'zning etimologiyasiga nazar tashlansa, proteza grek tilidan o'zlashgan bo'lib, "prothesis" - oldida turuvchi ma'nosida ishlatiladi. Ma'lum fonetik sabablarga ko'ra so'z boshida tovush orttirilishidir. Proteza badiiy tasvir vositasi bo'lib, so'z yoki bo'g'in boshida tovush qo'shilish hodisasidir, uni osonroq talaffuz qilishga yordam beradi. Masalan: Old fond eyes, **beweeep** this couse again. (King Lear by W.Shakespear).

Yozuvchi "weep" so'zi boshiga "-be"- ni qo'shish orqali so'z ta'sirchanligini oshirgan. Shuningdek, boshqa bir holatda so'z boshida harf qo'yish orqali ham so'z yasalishini ko'rish mumkin. Masalan: Touchstone: I remember when I was in

love. I broke my sword upon a stone and bid him take that for coming a - **night** to Jane Smile. (as you light by W.Shakespear).

Ushbu yuqoridagi parchada **night** so'zi boshiga "a" unli harfini qo'shish orqali proteza hodisasi sodir bo'lganligini ko'ramiz va bu orqali so'zning ta'sirchanligi oshirilgan. Proteza faqat nasriy asarlarda emas, balki poeziyada ham ko'p ko'llaniladi.

¹⁷ A.Hojiyev Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. T: O'qituvchi, 1985. - B 17.

Edgar Alan Poning quyidagi she'riy misrasida ham fonetik o'zgarishli shakldan foydalanganligini ko'ramiz.

Thus much let me avow,
You are not wrong who deem;
That my days have been a dream;
Yet if hope has flown away.

Shoir she'ning birinchi misrasidagi "vow" so'zi boshiga "a" unli fonemasini qo'shish orqali she'ning ritmik badiiyligini ta'minlagan.

Shuningdek, tilda yana quyidagi fonetik o'zgarishlar mavjud bo'lib: assimilatsiya - tovushlardan biri ikkinchisini o'ziga o'xshash tovushga aylantirishidir. (o'tdi - o'tti, aytdir - aytir); dissimilatsiya (noo'xshashlik) - ikki o'xshash tovushdan biri o'zgarib, bir - biriga nisbatan noo'xshash bo'lib qoladi. (zarur - zalur, zarar - zalar);

Eleziya - tovush tushishi. So'z o'zagiga qo'shimcha qo'shilganda o'zakdagi bir tovushning tushishi. (o'g'il - o'g'lim, shahar - shahrim).

Sinkopa - so'z tarkibidagi tovush va tovushlar kompleksining tushishi. (birlan - bilan, singilim - singlim).

Epinteza - so'z oxirida qo'sh undoshdan keyin unlining orttirilishi (kiosk - kioska, tank - tanka, bank - banka).

Epiteza - kiritish. So'z ichida tovush orttirilishi (sinf - sinif, doklad - dokalad).

Xulosa qilganda, fonetik o'zgarishli variantlar asosan ikki ko'rinishga kombinator va pozitsion ko'rinishlariga ega. Bunday o'zgarishlar bir qancha ko'rinishlarga ega bo'lib, asosan, so'zlashuv va badiiy nutq uslublarida ro'yobga chiqadi.

Fonetik o'zgarishli so'zlarning deyarli barchasida hissiy ta'sirchanlik, emotsional bo'yoq, jozibadorlik, ohangdorlik kabi qator konnotativ ma'nolar ifodalanadi. Ushbu hodisalar ingliz tilida o'zbek tilidagidek, qofiyani rostdash, ritm, tarixiylik, so'zlashuv nutqida esa qo'shimcha bo'yoqlarni hosil qiluvchi tasviriy vosita sifatida ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. И.В.Арнольд *Стилистика современного английского языка*. – М:Просвещение, 1999. – С 202-211.
2. И.П.Гальперен *Стилистика английского языка*. – М: Высшая школа. 1981. – С 312.
3. Askarovich, H. A., & zulfizar Khudoyberdiyevna, S. (2021). Emotional Concepts In English and russian Phraseology. *Conferencious Online*, 33-37. <https://conferencious.com/index.php/conferences/article/view/55>.
4. Haydarov, A. A., & Navruzova, N. H. (2021). Stylistic Features Of Intonation. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(1), 18-29. https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_1_son_2021.pdf#page=20.
5. Askarovich, H. A. . (2022). So'z Ma'nolari Intensivligi. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 13–15. <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/29>.

6. Haydarov Anvar Askarovich, & Ruziyeva Nafisa Zarifovna. (2021). SEMANTICS OF EUPHEMISM IN BUSINESS LANGUAGE. *Conferencious Online*, 19–22. <https://conferencious.com/index.php/conferences/article/view/52>.
7. Kilichev, B. E., & Safarova, M. Z. (2021). Toponyms formed on the basis of nation names. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)* ISSN, 2509-0119.
8. Kilichev, B. E. A Way of Making Words on Proper Nouns. *International Journal on Integrated Education*, 3(2), 96-98. <https://media.neliti.com/media/publications/333098-a-way-of-making-words-on-proper-nouns-08e83e0e.pdf>.
9. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). Modern Methods of Translating Phraseological Units. *Eurasian Research Bulletin*, 4, 153-158. <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/516>.
10. Yunusova.(2017).PEER EDITING IN MODERN WRITING. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=29457747>.
11. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). THE MAIN FEATURES OF TRANSLATION OF PHRASEOLOGY FROM ENGLISH INTO UZBEK. *Scientific Impulse*, 1(3), 523-526. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1024>.